

YOSH AVLODNI BARKAMOL RUHDA TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA

Quvvatov Sardor Isomiddinovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalashda estetik tarbiyaning tutgan o'rni xususida mulohaza yuritilgan. Estetik tarbiya tushunchasi, uning zaruriy shart-sharoitlari, tarbiyaning asosiy qismi sifatida yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: estetika, tarbiya, estetik ong, san'at, go'zallik, jamiyat, ma'naviyat, milliy qadryatlar.

Bugungi kunda O'zbekistonda adolatli jamiyatni barpo qilishda va barkamol insonni tarbiyalashda estetik ong va madaniyatning, estetik qadriyatlarning o'rni hamda ahamiyati ortib bormoqda. Yangi jamiyat va farovon turmush qurish, insonga munosib go'zal hayotni barpo etish eng avvalo fuqarolar, yoshlarda hayotga, mehnatga, insonlararo munosabatlarga, insonning ma'naviy kamolotiga nafosatli yondashuv shakllanishini talab qilmoqda.

Hozirgi paytda globallahuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarini qamrab olganligi hech kimga sir emas. "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim."¹³⁸ Darhaqiqat, bugungi kundagi globallahuv, axborotlashuv davrida yoshlar ongi, tafakkurini turli g'ayriestetik g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ayniqsa elektron vositalar orqali kirib kelayotgan turli ko'rinishdagi omillarning estetik mazmunini to'laqonli anglash, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari, shakllariga estetik baho berish, uning zararli ta'sirlariga qarshi yoshlarda g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni estetik vositalar orqali shakllantirish masalasi muhim masalalardan biridir.

Bugungi kun voqe'ligi ijtimoiy muammolarni insoniyat foydasiga hal etishga harakat qilib, jahonning barcha davlatlarida nafosat tarbiyasiga bo'lgan munosabat o'zgarmoqda. Voqe'likdagi barcha narsa va hodisalarni nafosat qonuniyatlarini asosida boyitish, sevinch va quvonch manbaiga aylantirish barcha xalqlarning orzu-umididir. Ma'naviy madaniyat inson tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, badiiy va san'at asarlarini, axloqiy va estetik qarashlarni o'z ichiga oladi. Shular asosida nafosat tarbiyasini takomillashtirish, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik va ma'naviy estetik

¹³⁸ III.М.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манбаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Самарқанд газетаси, №99, 2016-йил 10-декабр, 3-бет

ruhda tarbiyalash, ma’naviy barkamol insonni voyaga etkazish bugungi kundagi dolzarb vazifadir. Binobarin, yuksak estetik madaniyatni jamiyatda qaror topdirish uchun “azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda”¹³⁹ yangicha turmush tarzini, moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish va iste’mol qilish borasidagi muayyan malakalarni egallashimiz zarur. Bunday estetik faoliyatga moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish va ilm-fan yutuqlari, oila, turmush estetikasi, ta’lim tizimi, umuminsoniy madaniyatlarni o‘rganish va hokazolar kiradi.

Estetik tarbiya kishilarda estetik his, estetik ong va estetik munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shaklidir.¹⁴⁰ Estetik tarbiyani mehnat tarbiyasining ajralmas bir qismi sifatida ham tushunish mumkin. Kishilarda estetik histuyg‘u, estetik did, estetik ideal kabi estetik ong unsurlarining shakllanib borishi estetik tarbiyaning rivojlanishu uchun zamin yaratadi. Estetik tarbiya asosida hayotdagi va san’atdagi go‘zallikni to‘g‘ri idrok etish, kishilardagi estetik ehtiyojlarni tarbiyalab voyaga etkazish, har bir ota-onan, o‘qituvchi, ustozning burchidir. Bolalarni yoshligidan boshlab tabiat va san’at go‘zalligi olamiga olib kirish bilan birligida, kuy, musiqa ohangi, nafis gullar tarovati va chiroyi, san’at asarlari bilan tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Estetik tarbiyaning vazifasi obyektiv olam go‘zalligi xilmay-xil ko‘rinishlarini ajratib yoshlar dunyoqarashini nafosat tuyg‘ulari bilan boyitib borishdan iboratdir. Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o‘zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Voqelikni mushohada etish, jamiyatdagi xilma-hil ehtiyojlarni qondirishda estetik tarbiya kishiga ruhiy quvvat bag‘ishlaydi.¹⁴¹

Estetik tarbiya insonga hayot va san’atdagi go‘zallikkardan bahramand bo‘lish, ularni baholay bilish hamda o‘zi ham go‘zalliklar yaratish tuyg‘ularini shakllantirishga ko‘mak beradi. Ammo, bu jarayon o‘z-o‘zicha emas, balki bir qator omillar va vositalar ishtrokip amalga oshiriladi. Jumladan, oila, mahalla, mакtabdan tashqari muassasalar (bog‘cha), akademik litsey, badiiy-havoskorlik to‘garaklari, oliy o‘quv dargohlari hamda jamoalari estetik tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omillar bo‘lib sanaladi.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimo aloqada bo‘lib keladi. Badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang-barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o‘zlashtirishning bir qismidir. Estetik tarbiya esa, jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u insonning didini shakllantiruvchi, rivojlaniruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir¹⁴². Estetik tarbiyani olib borishda, estetik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda, o‘tmish madaniyatimiz va milliy estetik tarbiyamizni bir-biri bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining estetik tarbiyasi milliy qadriyatlarmiz va undagi insoniylik tamoyillari bilan bog‘langan. Bolalarni estetik tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy yuksalishida katta rol o‘ynaydi. Hattoki, maktablardagi va o‘rta maxsus

¹³⁹ И.А. Каримов. Юқсан маънавият - ёнгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008, 3-6.

¹⁴⁰ Falsafa qomusiy lug‘at, Toshkent,; 2004, 466-b

¹⁴¹ G‘aybullayev O.,Estetika, Samarqand – 2004, 116-b

¹⁴² Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov, Estetika, Toshkent – 2008,159-b.

ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zining milliyligi jihatni bilan butun jahon xalqlari diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Insonning estetik tarbiyasi uning madaniyati va ma’naviyatida namoyon bo‘lar ekan, u doimo shular asosida go‘zallikni his qilish, nafosat olami chiroyidan bahramand bo‘lish, yaxshi fazilat va xislatlarga ega bo‘lish kabi tuyg‘ularni o‘zida mujassam etmog‘i lozim. Shu boisdan insonning estetik tarbiyasi mukammal va serjilo ko‘rinishga ega bo‘lishi uning ma’naviy-madaniy jihatlariga bevosita bog‘liqdir. Bular orqali inson faqatgina go‘zallikni his etib qolmasdan, balki o‘zida yuksak hissiyot, odad, ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy madaniyat va ma’naviyat o‘z davrining mafkurasi hamda davr talab-ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Chunki har qanday estetik tarbiyada madaniyat va ma’naviyatning hamohangligi, birligi va mutanosibligi bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, estetik tarbiya sohasida milliy estetik qadriyatlarimizni tiklash va yanada rivojlantirish, jamiyat ma’naviy hayotida badiiy-estetik omillarning ahamiyatiga e’tiborni kuchaytirish, ijodiy salohiyat uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Estetik tarbiya orqali kishilarda tabiat va jamiyatni estetik(nafosatlilik) o‘zlashtirish va baholash barobarida estetik madaniyat ham shakllana boradi. Estetik tarbiya o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. III.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Самарқанд газетаси, №99, 2016-йил 10-декабр, 3-бет
2. И.А. Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008, 3-б.
3. Falsafa qomusiy lug‘at, Toshkent,; 2004, 466-b
- 4.G‘aybullayev O.,Estetika, Samarqand – 2004, 116-b
- 5.Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov, Estetika, Toshkent – 2008,159-b.